

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI**

**TEMIROV ABROR XAKIM O‘G‘LI**

**“JISMONIY SHAXSLARNING MULKIY DAROMADLARINI  
SOLIQQA TORTISH USLUBIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

“Soliqlar va soliqqa tortish”  
kafedra mudiri  
i.f.d., professor Jo‘raev A.C. \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y.

**Bitiruvchi:** 5340800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”  
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Temirov  
Abror Xakim o‘g‘li \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** dost. Amanov A. \_\_\_\_\_

**TOSHKENT - 2013**

## MUNDARIJA

betlar

<b>KIRISH.....</b>	3
<b>I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING OB'JEKTIV ZARURLIGI.....</b>	7
1.1. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning zarurligi va ahamiyati.....	7
1.2. Jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibi va ularning shakllanishi.....	13
<b>II BOB. JISMONIY SHAXSLAR MULKIY DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTI (Urgut tumani ma'lumotlari misolida).....</b>	19
2.1. Jismoniy shaxslarning dividend va foizli daromadlarini soliqqa tortish jarayoni.....	19
2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlarini soliqqa tortish tartibi.....	26
<b>III BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MULKIY DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	39
3.1. Jismoniy shaxslardan soliq undirishning xorij tajribasi va undan foydalanish masalalari.....	39
3.2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishni mukammallashtirish.....	46
<b>XULOSA.....</b>	50
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	53

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar alohida ahamiyatga ega, chunki bu soliq turlari soliq to'lovchilar sonining ko'pligi va soliq bazasining kattaligi bilan ajralib turadi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan soliq turi hisoblanadi. Agar ushbu soliq turi bo'yicha 2008-2012 yillarda davlat byudjetiga tushayotgan summalarning 90 foiziga yaqinrog'i bevosita mehnat haqi shaklida olinayotgan daromadlardan undirilayotganligini, qolgan qismi esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan undirilayotganligiga e'tiborni qaratsak, kelgusida bu soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi hissasi yanada oshishi kutiladi. Respublikamizda so'nggi yillarda korxonalar va aholi tulaydigan soliqlarning stavkalarini keskin pasaytirib borish tendentsiyasi amal qilmoqda. Ma'lumki, aholi pul daromadlarini mustahkamlash respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyatimizning poydevori sifatida ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan eng muhim bo'lgan sohaga aylanib bormoqda. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov 2012 yil yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi majlisida so'zlagan ma'ruzasida, "Har qaysi oiladagi farovonlik, yurtdoshlarimizning hayotga bo'lgan munosabati, provard natijada butun jamiyatimizning barqarorligi, avvalo, odamlarimizning qanday ish bilan ta'minlanganligi, o'z mehnatiga yarasha munosib maosh olishiga bog'liqdir"- deb barchamiz, avvalombor katta-kichik rahbarlar hech qachon esdan chiqarmasliklarini ta'kidladilar.<sup>1</sup> Prezidentimiz fikrlaridan kelib chiqqan holda, jismoniy shaxslarning ish bilan bandligini ta'minlash, real daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning daromadlarini soliqqa

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan olindi. Soliq va bojxona xabarlar gazetasi. № 3(392) 2013 yil 22 yanvar.

tortishda eng maqbul uslubiyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotga ta'siri avvalo, uni boshqarish hamda tartibga solishning boshqa usullari bilan bir qatorda soliqlardan to'liq, qisman ozod qilish yoki soliqqa tortish bazasini kamaytirish orqali, tadbirkorlikni muomala sohasidan moddiy ishlab chiqarish sohasiga o'tkazishga yordam beradi va shu yo'l orqali iqtisodiyotda progressiv tarkibiy o'zgarishlarga erishiladi.

Birinchiidan, soliqlarni chuqur o'rganish va tushuntirish, ularni takomillashtirish yo'llarini bilib olish uchun ko'plab ilmiy maqolalar, qo'llanmalar va darsliklar yozish.

Ikkinchiidan, soliq imtiyozlarini berish orqali davlat biror bir tarmoqni yoki faoliyatni rivojlantirish yo'llarini topish va amaliyotda qo'llash.

Uchinchiidan, jahondagi rivojlangan bir qator mamalakatlarining soliq siyosatini o'rganish va tajriba almashish.

Davlat shu kabi masalalarni ustivor yo'nalishlari ko'rinishida tanlar ekan iqtisodiy boshqarishning yagona vositasi bo'lgan soliq tizimi muammolariga mutanosib ravishda uni shakllantirish, unda mavjud bo'lgan soliq imtiyozlari hamda uni rag'batlantiruvchi omillarga alohida o'rin berib kelmoqda.

Jismoniy shaxslardan soliq undirish deyarlik barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjuddir. Jahon tajribasi orasidan quyidagilarni qayd qilib o'tish mumkin:

Birinchiidan: soliq solish ob'ektining soliq solinmaydigan eng kam miqdoridagi summasi.

Ushbu imtiyozdan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy yo'nalishga ega aholining kambag'al qatlamlarini himoya qilish bilan bog'langan.

Ikkinchiidan: soliq stavkalarini kamaytirish bu xolatlarda soliq tizimining moslashuvchanligi uni tabaqalashtirib, ya'ni, kattagina rag'batlantirish imkoniyatlariga ega bo'lgan xilma-xil imtiyozlarini qo'llash bilan belgilanadi.

Soliqlar paydo bo'lgan paytdan boshlab, soliqlar to'g'risida doimo izlanishlar olib borilgan. Bu masalalarga azaldan taniqli mashhur klassik

iqtisodchi odimlar A.Smit, D.Rikardo, G.Jorjlarning asarlarida dastlab keng o'rin berilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning ba'zi masalalari qisman I.V.Gorskiy, A.A.Drobozina, V.G.Panskov, D.G.Chernik kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgandir.

Ushbu masalaning ayrim jihatlarida O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar ham o'zlarining munosib hissasini qo'shib kelmoqdalar. A.Abduqodirov, E.Gadoev, V.Galkin, A.Jo'raev, T. Malikov, J.Zaynalov, O.Olimjonov, Q.Yahyoev va boshqalar shular jumlasidandir.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti.** Ishning ob'ekti bo'lib jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari va ularning manbalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini aniqlash jarayoni va ularga nisbatan soliq hisoblashda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortish, ularni hisobini yuritish tartiblari, soliqqa tortish muammolari va ularga berilgan imtiyozlarni qo'llanishi bilan bog'liq tahliliy natijalarni har taraflama o'rganish va turli xildagi ilmiy asoslangan yo'nalishlarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga etishishda quyidagilarni amalga oshirish asosiy vazifa sifatida belgilab olindi:

- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga nisbatan soliqlarning joriy etilish maqsadlarini va funktsiyaviy xususiyatlarini aniqlash;
- soliq imtiyozlari, ularning turlari va ko'rinishlarini nazariy jihatdan o'rganish;
- iqtisodiyotda soliq siyosatini ro'yobga chiqarish va isloh qilishda soliq imtiyozlaridan foydalanishning ahamiyati, ularning o'рни va rolini ko'rsatib berish;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga nisbatan joriy qilingan soliqlarni turkumlarga ajratish va tahlil qilish;

- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga nisbatan joriy qilingan soliqlarni undirishni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy va nazariy jihatdan asolangan takliflarni berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishni ilmiy jihatdan yangilash darajasi jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish yo'llarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish, soliqqa tortishning iqtisodiyotimizga mos tamoyillarini hamda yo'nalishlarini tatbiq etishdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati.**

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, ish natijalaridan jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortishni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishning xulosalari va amaliy takliflaridan jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, o'quv uslubiy majmualarni yangilashda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va tarkibi, ushbu bitiruv malakaviy ishimiz kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari keltirib berilgan.

Birinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ob'ektiv zarurligi hamda jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi o'rganilgan.

Ikkinchi bobda jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari, ya'ni dividend va foizlarni soliqqa tortish jarayoni hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkklarini soliqqa tortish xususiyatlari amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Uchinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslar olinadigan mulkiy daromadlarni soliqqa tortishni takomillashtirish yo'nalishlari atroflicha o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishi yakunida talaba tomonidan mavzu masalalarini qamrab olgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

# **I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING OB'EKTIV ZARURLIGI**

## **1.1. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning zarurligi va ahamiyati**

Amaliyotda soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga berilgan ta'riflarni tahlil qilish avvalambor ularning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tutgan o'rnini aniqlash uchun zarurdir. Chunki, soliqlar davlat paydo bo'lishi bilan jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblangan.

Soliq tizimining klassik tamoyillari deyarli barcha mamlakatlar soliq tizimiga asos bo'lib kelmoqda. Bular adolatlilik, aniqlilik, qulaylilik va tejamkorlilik tamoyillaridir.

Birinchi tamoyil adolatlilik tamoyili bo'lib, unga muvofiq barcha jismoniy shaxslarning daromadlari hamma uchun teng soliqqa tortilishi va teng taqsimlanishini anglatadi. A.Smit adolatlilikni fuqarolar daromadlarini barcha uchun umumiylik va mutanosiblik asosida soliqqa tortish sifatida tushunsa ham, badavlat odamlar progressiv usulda soliqqa tortilishi lozim deb qaragan. Buni uning quyidagi fikrlari yaqqol tasdiqlaydi: "...Boylar davlat xarajatlarini nafaqat daromadlariga nisbatan qoplashga hissa qo'shishlari, balki bundanda ko'proq hissa qo'shsalar maqsadga muvofiqdir".

Shuningdek, fuqarolar alohida olingan soliq turi bo'yicha bitta bir xil soliqqa tortilmasligi, chunki fuqarolar turli manbalardan daromad olishlari va shunga mos ravishda alohida-alohida soliq to'lashlari kerakligi ta'kidlanadi.

Ikkinchi tamoyil aniqlilik tamoyili bo'lib, unga asosan hisoblangan soliq summasi, soliqni undirilish tartibi va soliqni byudjetga to'lash muddati soliq to'lovchilarga oldindan ma'lum bo'lishi kerak. O'z asarida u bu tamoyilga alohida to'xtalib, uni quyidagicha rivojlantiradi: “Har bir shaxs soliq to'lashi zarurligining aniqligi soliqqa tortishda shunchalik ahamiyatga egaki, barcha xalqlar tajribasidan ma'lum bo'lganidek soliqqa tortishning tengsizligi kichkina noaniqlikka nisbatan kamroq zarar keltiradi”<sup>2</sup>.

A.Smit aniqlilik bo'lishi lozimligi to'g'risidagi talabini quyidagicha izohlaydi: “Bu qaerda bo'lmasin, soliqqa tortiladigan har bir shaxs soliq yig'uvchisining ta'siriga tushadi, natijada u o'zi yoqtirmagan soliq to'lovchisi uchun soliq og'irligini kuchaytirishi mumkin yoki do'q-po'pisa bilan o'zi uchun manfaat izlaydi, bunday og'irlik “sovg'a” orqali amalga oshiriladi. Soliqqa tortishdagi noaniqlik surbetlikka va sotib olishga moyil odamlarga qo'l keladi, busiz ham shunday odamlar surbet va sotilishga moyildirlar”<sup>3</sup> (tarjima muallifniki).

A.Smit shu tariqa o'zining aniqlilik tamoyilidan kelib chiqib, uning buzilishi qanday salbiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatib qolmay, shu bilan birga V. Pettining soliq yuki haqidagi g'oyalarini ham mazmunan takrorlaydi. Uning so'zicha, “noaniqlik va gumonlar soliqqa tortishning huquqiy asosi bilan bog'liqdir”<sup>4</sup>.

Uchinchi tamoyil qulaylilik tamoyilidir. Unga muvofiq byudjetga soliq shunday undirilishi kerakki, u soliq to'lovchi uchun qulay bo'lishi kerak. Bunda soliqni daromad yoki foyda olish vaqtida to'lanishi, soliq to'lovlari oddiy va qulay tartibda amalga oshirilishi alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston soliq tizimiga ana shu tamoyil nuqtai-nazaridan qarasak, uning mexanizmida mavjud nuqsonlar yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan Prezident

---

<sup>3</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов /Антология экономической классик. Предисл. И.А. Столярова. – М.: МП “ЭКОНОВ”, “КЛЮЧ”, 1993. -588 с.

<sup>4</sup> Петти В. Трактат о налогах и сборах /Антология экономической классики. Предисловие Столярова И.А. – М.: Мл. Эконов “Ключ” 1993. -175 с.



I.A.Karimov soliq tizimiga printsiptial yondashib, “Soliqlar xo’jalik faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi bilan birga har bir tarmoqqa, korxonaga alohida yondashuvni ta’minlashi lozim”, - deb ta’kidlaydi.

So’nggi tamoyil tejamkorlik tamoyili bo’lib, bu tamoyilga ko’ra har qanday soliq shunday joriy kilinishi kerakki, uni byudjetga undirish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar juda kam bo’lishi, yani davlatga kimmatga tushmasligi lozim. Bu erda gap soliq tizimi faoliyatining samaradorligi bilan bog’liq. Ushbu tamoyil bir so’mlik soliq summasining byudjetga borib tushishi qancha miqdordagi xarajatning qilinishi evaziga qo’lga kiritilishini anglatadi.

A.Smit aholidan olinadigan soliqlar davlat xizmatlarining “adolatli narxi”, degan to’xtamga keladi. U moddiylashgan dunyoqarash egasi bo’lishiga qaramasdan, soliq davlatning mudofaa, davlat apparatini saqlab turish kabi jamiyat barcha a’zosi teng manfaatdor bo’ladigan xizmatlari uchungina undirilishi hamda ta’lim, huquqni himoya qilish, sog’liqni saqlash kabi xizmatlar bilan bog’liq xarajatlar esa maxsus yig’imlar hisobiga qoplanishi, yig’imlar to’liq undirilmay qolishi natijasida moliyaviy tanglik yuzaga kelgan hollardagina soliqlar hisobiga moliyalashtirilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari A.Smit ta’kidlaganidek ta’lim, huquqni himoya qilish, sog’liqni saqlash kabi soha xarajatlarning to’liq yig’imlar hisobiga qoplanishi maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Chunki mavjud xizmatlarning yig’imlar hisobiga qoplanishi ular sifat ko’rsatkichi yaxshilanishiga olib keluvchi omillardan biri ekanligini rad etmagan holda, aholi iqtisodiy nochor qatlamining bunday xizmatlardan bebahra qolishiga sabab bo’lishini ham unutmashlik kerak.

Xullas, A.Smit soliqlarni joriy qilishda va stavkalarni belgilashda ehtiyot bo’lishni takidlaydi va asarida buning aniq ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablarni keltiradi. Takidlab o’tilgan koidalarga rioya qilish, uning fikricha, joriy etilayotgan soliqning solik to’lovchilar uchun og’ir bo’lmasligiga olib keladi.

A.Smit maktabining eng oxirgi namoyandasi J.Mill “Siyosiy iqtisod asoslari, ularning jamiyat falsafasiga qisman tadbiqu” nomli asarida, o’zidan

oldin o'tgan ulug' namoyandalar (A.Smit, R.Maltus va D.Rikardo)ning fikrlarini yangi xulosalar bilan to'ldirdi. J.Mill A.Smitning barcha soliqqa tortish g'oyasini rivojlantirib, - soliqlarning tengligi umumiy qoidasini ilgari surdi. U soliqlar natijasida soliq to'lovchilar uchun kelib chiqadigan noqulayliklarning bir xil bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. U to'g'ri va egri soliqlarni tahlil qilib, barcha egri soliqlar to'g'ri soliqlarga nisbatan behad ustunlikga ega, chunki egri soliqlarni undirish vaqti va usuli soliq to'lovchilar uchun eng qulaydir, degan xulosaga keladi. Soliqlarni adolatlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqib, ularni adolatsiz bo'lmagan deb hisoblaydi.

Klassik maktab vakillaridan yana biri, J.Sismondi soliqlarga "huzur halovat uchun to'lanadigan haq", deb ta'rif beradi.<sup>5</sup> Mazkur ta'rifdan ko'rinadiki, fuqarolar tomonidan to'lanayotgan soliqlarni davlat ularning tinchligi va farovon hayot kechirishi evaziga olayotgan haq sifatida e'tirof etadi.

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, klassik iqtisodchi olimlar soliqqa tortishda yuridik shaxslarga nisbatan ko'proq jismoniy shaxslarni nazarda tutgan holda, ularning mulklari va daromadlarining barcha shakllarini soliqqa tortish to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surganlar.

Aholini soliq munosabatlariga kiritish borasida o'rta asrlarda yirik saltanat barpo qilgan Amir Temur katta e'tibor qilgan. Soliq munosabatlari haqida qancha rivoyatlar aytib o'tilgan bo'lmasin, uning mohiyati aholi soliq to'loviga nisbatan faqat o'z mohiyatini xazinadan topgan. Xazina har qanday tizimda ham davlatni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bunday vosita nafaqat davlatni boshqarishda, balki aholi manfaatlarini qondirishda ham namoyon bo'lgan. Natijada xazina taqsimoti taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Shu bois "Temur tuzuklari"da ko'rsatilganidek, "davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini yaxshi ahvolda, saranjom tutadi" degan fikri misolimiz dalilidir. Ammo Amir Temurning yaxshi vazir haqidagi mulohazasi ko'proq aholi soliq to'lovini

---

<sup>5</sup> Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М. 1996. -63 с.

yaxshi yo'lga qo'ya oladigan va soliq to'lovlari orqali xazina to'liqligini ta'minlay oladigan shaxsga qaratilgan bo'lsada, ana shu xazinachining soliq munosabatlarini takomillashtirishda naqadar muhim o'rin egallashi mumkinligi bevosita aholi manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan. Ammo xazinani to'ldirilishi doimo soliq to'lovlari bilan bog'liq bo'lmagan, chunki xazinaning bir qismi qo'lga kiritilgan molu-boylikdan tashkil topgan bo'lib, u aholi manfaatlariga safarbar ettirilmagan va hukmdorning tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Shu o'rinda, davlat va jamoat arbobi Amir Temurning soliqlarga "... mamlakat obodonchiligi, uni yuksaltirish va xavfsizligini ta'minlashning asosiy omili" deb qaraganligi diqqatga sazovordir. U o'zining "Temur tuzuklari" asarida soliqlardan tushgan mablag'lar hisobiga har bir shahar va qishloqlarda madrasa, xonaqohlar bino qilishlarini, faqiru-miskinlarga g'aribxonalar solishlarini, kasallar uchun shifoxonalar qurdirishlari hamda ularda ishlash uchun tabiblar tayinlashlarini, buzilgan ko'priklarni tuzatishlarini, raiyat va ziroatni qo'riqlovchi qo'riqchilar tayinlashlarini, xarob bo'lib yotgan erlarda korizlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar, yo'l ustida har manzilga rabotlar qurishlarini, yo'llarga o'g'riliklar oldini olish uchun kuzatuvchi va soqchilar qo'yishlarini amr qilganligi keltiriladi.<sup>6</sup>

Xazinani boshqarish masalalarida Saljuqiylar sulolasining mashhur vaziri Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida qo'yidagicha ta'riflab o'tilgan, ya'ni: "Shohlarda hamisha ikkitadan xazina bo'lgan, ularning biri asosiy, ikkinchisi xarj xazinasi edi. Qo'lga kiritilgan molu boylik, asosan, birinchi xazinaga to'lanar edi va zaruratsiz bu xazinadan bir dirham ham xarj etmasdilar. Agar biror narsa olsalar ham, qarz sifatida olib, tez joyiga qaytarar edilar. Har bir keladigan narsaning xarajatga sarflanishi mumkin emas, albatta. Mabodo, biron narsaga yoki molga hojat tushsayu, topilmasa, bu muhim ish ziyonli bo'lardi. Xazinaga qo'yilgan har bir narsa viloyatlardan kelib, har birining o'z joyi bo'lardi va ularni almashtirishga yo'l qo'yilmasdi. Har bir narsa o'z vaqti va o'z

---

<sup>6</sup> Temur tuzuklari. / Forschadan A.Sog'unuy va H. Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahr. ostida. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. 1996. 125-bet.

joyida harj bo'lishi kerak edi. Shundagina sovg'a qilish, sadaqa va mol berish ishlariga halal yoki kamchilik etmaydi. Xazina hamisha obod bo'lib, odamlar rohatda yashaydi, biror kishi mol-mulki jihatidan azob chekmaydi".

Demak, xazina ikki bo'limdan iborat bo'lgan, birinchisi - asosiy xazina hisoblanib, bunda uzoq yillar davomida nodir buyumlar sifatida saqlab va to'plab kelingan durdonalar asralgan; ikkinchi bo'lim esa xarajatga xizmat qilgan. Joriy mablag'lar taqchilligi sezilganda asosiy xazinadan joriy xazina uchun qarz olinib, keyinchalik o'rni to'ldirilgan, faqat to'ldirilibgina qolmasdan, qo'shimcha mablag'lar hisobiga tobora boyitib borilgan. Xazina kirim-chiqimlari muntazam qayd etilib, xazinaning ahvoli haqida zarur ma'lumotlar taqdim etib turilgan. Xazinada etishmovchilik kamdan-kam sezilgan.

Ammo Amir Temur oldingi o'ringa xazina birinchi bo'limining soliqsiz daromadlar qismini emas, balki ikkinchi qismi - soliq va yig'imlarni qo'ygan. Chunki aholi manfaatlari va mamlakatni boshqarishda soliqlar roli xususida chuqur mulohaza yuritgan, ularning demokratik tamoyillarini rivojlantirishga harakat qilgan.

XX asr boshida rus olimi A.Sokolov soliqlarga quyidagicha ta'rif bergan: "Soliq deganda davlat hokimiyati tomonidan ayrim xo'jalik yurituvchi shaxslardan yoki xo'jaliklardan ushbu hokimiyat amalga oshiradigan sarf-xarajatlarni qoplash uchun va biron-bir iqtisodiy siyosat vazifalarini hal etishga erishish uchun to'lovchilarga maxsus ekvivalentini bermagan holda undiriladigan majburiy yig'imni tushunmoq lozim".<sup>7</sup> Aytish mumkinki, ushbu ta'rifda ham soliqlar hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan sarf-xarajatlarni qoplash maqsadida xo'jalik sub'ektlaridan yoki jismoniy shaxslardan qaytarib bermaslik sharti asosida undiriladigan majburiy yig'im ekanligi ta'kidlangan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yuqorida zikr qilib o'tganimizdek, shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish mushkulroq. Chunki ushbu soliq har bir soliq to'lovchining hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>7</sup> Соколов А. Теория налогов. –М.: ООО "ЮрИнфоР-Пресс", 2004. –С. 25.

Yuqoridagilardan ayon bo'ldiki, jismoniy shaxslarning daromad solig'i byudjetning asosiy daromad manbalaridan biri sifatida ob'ektiv zarur hisoblanadi. Ushbu soliqning, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarbligi va ahamiyati oshib boradi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning aholi umumiy tarkibidagi salmog'i va ularning daromadlari oshib borishi kuzatiladi. Albatta, tadbirkorlar sinfining safi tobora kengayib borishi, daromadlarning oshib borishi, jismoniy shaxslarning ushbu qatlamidan o'z-o'zidan daromad solig'i tushumi ko'payib qoladi degan gap emas. Bu erda yana bir omil - bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan, jismoniy shaxslarni ishlab topgan daromadlari manбайдan qat'iy nazar progressiv va adolatli tarzda soliqqa tortilishini ta'minlashi kerak bo'lgan bir omil mavjudki, u soliqqa tortishning mexanizmi bo'lib, o'z ichiga jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda huquqiy va uslubiy asoslarni qamrab oladi.

## **1.2. Jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibi va ularning shakllanishi**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholining real daromadlarini tobora ko'paytirib borish masalalari har doim ham davlatimizning diqqat e'tiborida turadi. Chunki, dunyo tajribasidan ma'lumki aholining daromadlilik darajasi ularning farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

Ma'lumki soliqqa tortishda soliq to'lovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga bo'linadi. Amaldagi qonunchilikka asosan jismoniy shaxslar deganda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlat fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan 12 oygacha bo'lgan, istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekiston Respublikasida yashagan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblangan jismoniy shaxslar O'zbekiston

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – “Adolat”. 2003 y.

Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha daromad solig'i to'laydilar, norezident jismoniy shaxslar esa faqat O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatidan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'laydilar.

Soliq kodeksining 171-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar hamda boshqa daromadlar kiradi. Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga ko'ra jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga esa olingan foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromad, mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromad, hamda jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar kiradi. Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari tarkibi Soliq kodeksining 174-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

Soliq kodeksining 178-moddasiga ko'ra davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar, stipendiyalar, jismoniy shaxslarga xayriya va ekologiya jamg'armalarining mablag'laridan ko'rsatiladigan moddiy yordam, donorlik uchun pul mukofotlari, alimentlar, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari tarkibiga kiritilgan.

Bozor daromadi biz uchun yangi narsa bo'lib, uning miqdori cheklangan emas, uni ishlab topish uchun sharoit yuzaga kelmoqda. Bozor daromadi tartiban tadbirkorlik daromadi, mulkdan kelgan daromad va bozor talabiga qarab ishlovchi korxonalar va tashkilotlardan tegadigan ish haqidir. Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borgan sari bozor daromadlari doirasi kengayib, ularning miqdori ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summalarning miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

Respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub natijasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish deb olishdan maqsad, aholiga munosib turmush darajasini ta'minlashdir. O'tkazilayotgan tub tarkibiy o'zgarishlarning umumiy natijasi bo'lib yangi tipdagi daromad – bozor daromadi yuzaga keladi.

Bozor daromadi bozor qonunlariga binoan ishlab topilgan daromad bo'lib, uning miqdori iqtisodiy resurslarni (er, mehnat va kapital) naqadar samarali ishlatilishiga, aniqrog'i yaxshi iqtisodiy natijaga erishishga bog'liq. Bozor daromadi biz uchun yangi narsa bo'lib, uning miqdori cheklangan emas, uni ishlab topish uchun sharoit yuzaga kelmoqda. Bozor daromadi tarkiban tadbirkorlik daromadi, mulkdan kelgan daromad va bozor talabiga qarab ishlovchi korxonalar va tashkilotlardan tegadigan ish haqidan iborat. Bizga ma'lumki, iqtisodiy islohotlar qanchalik chuqurlashib borgan sari bozor daromadlarining tarkibi va doirasi ham kengayib boradi.

Iqtisodiyotda resurslarning ishtirokiga qarab bozor daromadlari mazmunan turlicha bo'ladi va uning asosiy qismini tadbirkorlik daromadi tashkil etadi. Bozor munosabatlarini tadbirkorlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy samara (foyda) olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bu samara tadbirkorlik daromadi deb yuritiladi. Ta'kidlash joizki, bozor munosabatlari chuqurlashib borgan sari aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadning ulushi ortib boradi. Shu boisdan jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida topilgan daromadlari dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida topgan  
daromadlari, mln. so'm<sup>9</sup>**

t\r	Ko'rsatkichlar	Yillar		
		2010	2011	2012
1	O'rindoshlik asosida topilgan mablag'lar	91760	100557	112362
2	Tijorat do'koniga mol topshirishdan	13923	14285	12202
3	Mulkiy daromadlar	31054	38080	38104
a)	Dividendlar va ijara bo'yicha			
4	Boshqa daromadlar	13399	29308	20724
	<b>Jami daromadlar</b>	<b>172423</b>	<b>182230</b>	<b>183482</b>

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida topgan daromadlari tarkibida eng salmoqli ulush – o'rindoshlik asosida topilgan mablag'lar zimmasiga to'g'ri keladi, ya'ni 2012 yilda mazkur daromadlar jami daromadlarning 61,2 foizini  $((112362:183482) \times 100)$  tashkil etgan. Undan keyingi o'rinlarda esa mulkiy daromadlar va boshqa daromadlar maydonga chiqadi. Mulkiy daromadlar jami daromadlarning 2012 yilda 20,7 foizini tashkil qilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi tahlil ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekistonda bozor munosabatlarning rivojlanishi bilan aholining real daromadlari ham oshishi kuzatilmoqda. Aholi daromadlari tarkibida aktsiyalardan olingan dividend miqdorining yildan-yilga oshishi bunga yaqqol misol bo'la oladi, deb hisoblaymiz.

O'zbekistonda aholi daromadlarini yanada oshirishga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



- mamlakat miqyosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yanada keng yo'l ochish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda har xil byurokratik to'siqlardan voz kechish;

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadini to'liq legallashtirish maqsadida ularga soliq engilliklarini joriy etish;

- asosiy ish joyidan tashqarida topgan daromadlarni amaldagi uch pog'onali stavkada emas, balki yagona stavkada (12 foizdan oshmagan holda) soliqqa tortish. Uch pog'onali stavka ijtimoiy nuqtai-nazardan adolatli hisoblansada, lekin daromadlarni to'liq hisobini olishda, bizning fikrimizcha, soliq to'lashdan qochishga undaydi, ayniqsa mol-mulknii ijaraga berishdan olingan daromadlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda soliq siyosatini yanada takomillashtirishda qayd etilgan soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan omillarni hisobga olish aholi daromadlarini legallashtirishdagi dastlabki qadamlardan hisoblanadi hamda aholi daromadlari tarkibida bozor daromadlarining ulushini oshishiga va shuningdek, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar sonini oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>10</sup>

Bozor iqtisodiyoti individual qobiliyatlar va moddiy resurslar harakatini inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ne'matlar yaratishga yo'naltirib, turmush farovonligini ta'minlash uchun iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib beradi. Resurslar sarfi va natijasi daromadning shakllanishiga olib keladi va pirovardida daromad farovonlikning kafolati bo'lib, insonning to'kin hayot kechirishi va kamol topishi imkoniyatlarini yanadi kengaytirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvini tadbirkorlikning jadal rivojlanishidan va aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik daromadining jadal o'sishidan aniqlash mumkin. Bu esa bozor uchun ishlashdan keladigan daromadlarning ustuvorlikka ega bo'lishini ko'rsatadi. O'zbekistonda keyingi

---

<sup>10</sup> Usmanova M.S. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ayrim masalalari// Birja Ekspert.- Toshkent, 2009.-№12(24)-B.16.

yillarda tadbirkorlar qatlami kengaydi va ular tobora iqtisodiy faollik ko'rsatib, yuqori daromad sohibi bo'lmoqdalar.

Tadbirkorlik daromadi keng ixtisoslashgan va muayyan faoliyatdan kelib tushishi mumkin. Bir sub'ekt uchun tadbirkorlik orqali daromad topish faoliyatining asosini tashkil etsa, ayrimlar uchun qo'shimcha daromad topish manbai sifatida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ishdan bo'sh vaqtda engil avtomashina sohibi kira ishlash yo'li bilan tadbirkorlik daromadiga ega bo'lsa, uy-joyi bor kishi uni qulay va yaxshi pul beradigan mijozni topib ijara haqi olishi mumkin. Bunda ayrim tadbirkorlar o'z qobiliyatini sarflab ish haqi va eng qulay imkoniyatdan foydalanganligi uchun foyda olishi mumkin.

Aholining xarid quvvatini o'stirishda aholining pul daromadlari bilan birga natural daromadlarining ahamiyati ham beqiyosdir. Chunki, turmush darajasi bevosita iste'mol miqdori va sifati bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, uni qondirishda pul va natural daromad turining har ikkalasi ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tadbirkorlikning keng rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish bilan birga kuchli ijtimoiy siyosat olib bormoqda. Natijada aholi daromadlarining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'yilmayapti. Ayniqsa, ish haqi va ishchilarning kam maosh to'lanadigan qatlamlariga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, davlat tomonidan qonuniy ravishda eng kam ish haqi miqdorining belgilab qo'yilishi kam ta'minlangan oilalar iqtisodiy ahvolining keskin yomonlashib ketishining oldini olishga xizmat qilib, siyosiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi.

## **II BOB. JISMONIY SHAXSLAR MULKIY DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTI (Urgut tumani ma'lumotlari misolida)**

### **2.1. Jismoniy shaxslarning dividend va foizli daromadlarini soliqqa tortish jarayoni**

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 176-moddasida asosan jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) foizlar;
- 2) dividendlar;
- 3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- 4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- 5) sanoat mulki ob'ektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad;
- 6) royalti;
- 7) qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- 8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Ushbu yuqoridagilarni nazarda tutgan holda bu erda bir qancha savollar kelib chiqadi. Soliq ob'ekti bo'lgan daromad tushunchasiga kirgan dividend nimadan olinadi. Dividendlar aksioner jamiyatlari chiqargan aktsiyalardan olinadi. Aktsiya (frantsuzcha action so'zidan) bu aktsiyadorlik jamiyatning guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda, ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish xuquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Demak aktsiya o'z egasiga (aktsiya oluvchiga) daromad keltiruvchi puldan ham qimmatli qog'ozdir). Bizning jismoniy shaxslarning daromadga solig'iga bag'ishlangan yo'riqnomada dividendlar tushunchasiga. Soliqqa tortish

maqsadiga aktsiyalardan olingan hamda boshqa xo'jalik sub'ektlarni ustav kapitalida xissali qatnashishdan olgan daromadlar kiradi deb ko'rsatilgan. Aktsiyalar chiqaruvchi jamiyatlar nuqtai nazaridan davlat aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga va aktsioner jamiyatlari aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

Bizning soliq qonunchiligimiz bo'yicha davlat obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlari soliqqa tortishdan ozod etilgan.

Aktsioner jamiyatlari aktsiyalari va boshqa korxonalarining kapitalida xissali qatnashishdir olgan daromadlar soliq ob'ekti bo'ladi va 10 foizli stavka bilan daromad solig'iga tortiladi. Shuning uchun jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar dividend va foizlarni daromadga xam tegishlidir.

Aktsiya o'zining faqat unga tegishli sifatlari bilan har hil turdagi qimmatli qog'ozlar ichida alohida o'rin tutadi. Eng avvalo bu – amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u uni chiqargan aktsiyadorlik jamiyati amal qilib turgan vaqt mobaynida muomalada bo'lishi mumkin. Aktsiya egasi aktsiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda uning mol-mulkini taqsimlashda ishtirok etish xuquqiga ega. aktsiyalar bo'yicha olingan daromad – dividend deb nomlanadi. Dividend odatda, aktsiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko'ra katta foydaga ega bo'lsa unda katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha. Agarda foyda mutloq bo'lmasa, dividend to'lanmasligi mumkin. Biroq umumiy qoidalardan istisno hollar ham mavjud. Bu masalan imtiyozli aktsiyalarga tegishli ular ko'rib chiqiladi. Odatda kredit kuroli bo'lgan va kredit munosabatlarini o'zida aks etirgan boshqa qimmatli qog'ozlar turlari (obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, veksellar)dan farqlar, aktsiya mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi vositadir. Uning egasi kompaniya aktsiyadorlarining umumiy yig'ilishida u yoki bu qarorga o'z ovozini bergan xolda aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish xuquqiga ega. aktsiyada ko'rsatilgan pul summasi nominal qiymat, deb nomlanadi. Aktsiya sarmoyalarga birinchi marta sotilganidan keyin bu qiymat aktsiyaning fond bozoridagi keyingi xarakati uchun xech qanday jiddiy

ahamiyatga ega emas va ulush sarmoyasi xajmini tavsiflangan hoda axborot xususiyatiga ega bo'ladi. Ko'pchilik ayniqsa aktsiyadorlik mulki ustun turadigan (AQSh) mamlakatlarda aktsiyalar ularda nominal qiymat ko'rsatilmagan xolda chiqariladi. Faqat kompaniya ustav sarmoyasi muayan ulush miqdoriga bo'linganligi ko'rsatiladi. Aktsiyalar nominal qiymatining belgilanishi fond bozori. Endigina rivojlanib borayotgan O'zbekiston uchun ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Bu birinchidan, nominal qiymat qimmatli qog'oz egasiga aynan ruhiy ta'sir ko'rsatadi va unga bu oddiygina mavxum majburiyat emas, balki ma'lum bir miqdordagi mulkiy unvon, deb hisoblashga asos beradi. Bundan tashqari, chiqarilgan aktsiyalarning nominal qiymatidan aktsiyadorlik jamiyatining ustav sarmoyasi vujudga keladi. Aktsiyalarni nominal qiymatisiz chiqarish, shubxasiz, hisobga olishda qiyinchiliklar tug'dirgan bo'lar edi. Va nihoyat, aktsiyalarni ikkilamchi bozorda sotishda nominal hamda kurs qiymati o'rtastidagi ijobiy farq imkoniyatli sarmoyador uchun kompaniyadagi ishlar ahvoliga nisbatan ayrim xulosalarni chiqarish imkonini beradi, bu qimmatli qog'ozlarni harid qilish haqida qaror qabul qilishda juda muhimdir. Turli mamlakatlarda aktsiyalarning eng kam (minimal) nominal qiymatlarni turlicha belgilangan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, aktsiyaning eng kam nominal qiymati – 100 so'm.

Aktsiyaning bozorda sotiladigan narxi aktsiya kursi, deb nomlanadi. Bu aktsiyalar bahosining asosiy shaklidir. Ushbu narx aktsiyaning real qiymatini belgilab beradi. Aktsiyalar kursi aktsiya bo'yicha olinadigan dividendga bevosita bog'liq bo'lsa, ssuda foizining me'yoriga nisbatan teskari munosabatda bo'ladi. Aktsiyalar kursi – bu kapitallashtirilgan dividend bo'lib, u pul sarmoyasi summasiga tenglashtiriladi, ushbu kapital bankka qo'yilgan yoki qarzga berilgan holda aktsiya bo'yicha olinadigan dividendga teng miqdorda daromad keltiradi. Kurs bahosiga, dividend va qarz me'yoridan tashqari, boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi, bu haqda keyinroq so'z yuritiladi.

O'zbekiston hududida chiqariladigan aktsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ochiq aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalari, ular ochiqchasiga muomalaga chiqariladi va qanchalik boshqa aktsiyadorlarning roziligisiz qo'ldan-qo'lga o'tishi mumkin, hamda yopiq aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalari, bular birlamchi joylashtirishda oldindan ajratib olingan sarmoyadorlar o'rtasida taqsimlanadi va faqat kompaniya umumiy yig'ilishining roziligi bilan qo'ldan qo'lga o'tishi mumkin.

2. Egasining nomi yozilgan va ko'rsatuvchi egalik qiladigan aktsiyalar. Egasining nomi yozilgan aktsiyalarda ular egasining familiyasi majburiy tarzda ko'rsatilishi shart, agar ularning egasi yuridik shaxs bo'lsa tashkilotning nomi ko'rsatiladi.

3. Oddiy va imtiyozli. Oddiy aktsiya aktsiyadorlar yig'ilishida ovoz berish xuquqini beradi, u bo'yicha olinadigan dividend miqdori esa, aktsiyadorlik jamiyatning yil davomidagi ishining natijalarga bog'liq va boshqa xech narsa bilan kafolatlanmagan. Imtiyozli aktsiya aktsiyadorlar umumiy yig'ilishda ovoz berish xuquqini va bu bilan korxonani boshqarishda ishtirok etish xuquqini bermaydi. Ularning imtiyozligi bir tomondan, jamiyat xo'jalik faoliyati natijalaridan qat'iy nazar kafolatlangan daromadni olish imkoniyatidan ikkinchi tomondan esa aktsiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtida aktsiyalar qiymatini birinchi navbatda olish xuquqidan iborat.

4. «Qayta baholanish huquqiga ega bo'lgan» aktsiyalar emitenga aktsiyaning egasidan qo'shimcha badalni talab qilish xuquqini beradi. Aksariyat hollarda bunday aktsiyalar inflyatsiya sharoitlarida chiqariladi.

5. «Kafolatlangan aktsiyalar» kafolatlangan dividendlarni olish xuquqini beradi.

6. «Oltin aktsiya» bu uning egasiga (ustav fondiga qo'shgan ulushidan qattiq nazar) ma'lum bir vaqt mobaynida kompaniyani boshqarish xuquqini beradi. Bunday aktsiyalar qo'pincha xususiyatlashtirish jarayonlari kechayotgan mamlakatlarda uchraydi. Bunday «Oltin» aktsiyaning egasi sifatida, odatda qandaydir bir iqtisodiyotni boshqaruvchi idora orqali davlatning o'zi ishtirok etadi.

7. «Ayirboshlanadigan» aktsiyalar – ularni oldindan kelishilgan narxlar bo'yicha muayyan bir vaqt oralig'ida boshqa aktsiyalarga (odatda, oddiy aktsiyalarga) almashtirish mumkin.

8. «Kursi o'zgarib turuvchi aktsiyalar». Ushbu aktsiyalar bo'yicha dividend to'lovlari foizning o'zgarishi darajasiga qarab o'zgarib turadi. Agar foiz o'ssa, aktsiyalar bo'yicha to'lovlar ham o'sadi va aksincha.

9. «Orderli aktsiyalar» ular o'z egalariga oddiy aktsiyalarning ma'lum bir miqdorini harid qilish va bu bilan butun nashrning likvidligini oshirish xuquqini beradi.

Bizning Respublikamizda ochiq va yopiq turdagi oddiy va imtiyozli aktsiyalar ancha yaxshi rivojlanib kelmoqda. Ammo, xali aktsiyalarni erkin qo'ldan qo'lga sotuvchi ikkinchi bozor vujudga kelgani yo'q. Asosan fond birjasi orqali aktsioner jamiyatlari aktsiyalari birinchi bozorda sotilmoqda.

Foizlar nimadan olinadi. Obligatsiya (lotincha obligatio so'zidan, majburiyat) bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan xolda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Aktsiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol-mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish xuquqini bermaydi. Obligatsiya – bu bir shaxsning (sarmoyador – kreditorning) boshqa bir shaxsga (emitent - qarzdorga) mablag'larining vaqtinchalik foydalanish uchun berganligi (kredit) haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalar ma'lum muddatga chiqariladi va so'ndirilishi shart. Emitentning faoliyati tugatilgan vaqtda ularning egalari qimmatli qog'ozlar boshqa turlarining egalari qaraganda an'anaviy tarzda ustunlikka ega bo'ladi.

Obligatsiyalarning quyidagi turlari mavjud.

1. Davlat obligatsiyalari.
2. Munitsipal obligatsiyalar (maxalliy zayomlar obligatsiyalari)
3. Korxonalar obligatsiyalari.

#### 4. Banklarning obligatsiyalari.

Jismoniy shaxslar foiz daromadlarini asosan sertifikatlardan, qarzli majburiyatlardan va boshqa depozit qimmatli qog'ozlardan olinayotgan daromadlar kiradi. Qarzli majburiyatlarga davlat obligatsiyalari, mahaliy hokimiyatlar obligatsiyalari (bizda rivojlanmagan) korxonalar va banklar obligatsiyalari kiradi. Davlat va maxalliy zayom obligatsiyalari, qimmatli qog'ozlari daromadlari soliقدan ozod qilingan.

O'zbekistonda rivojlanib boshlagan soliqqa tortiladigan foiz daromadi tarkibiga asosan banklar va korxonalar obligatsiyalari kiradi. Foiz daromadining soliqqa tortish ob'ekti obligatsiyalardan olgan daromadlardir. Chunki davlat obligatsiyalari, depozit sertifikatlari va omonatlari soliqqa tortilmaydi.

Depozit sertifikati (inglizcha certificate of deposit) – bu pul mablag'lari omonatga qo'yilganligi to'g'risida, omonatchiga belgillangan muddat tugaganidan keyin depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir. O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan keyin 1994 yildan boshlab sertifikatlar ikki turda chiqarila boshlandi. Depozit sertifikatlari – yuridik shaxslar uchun – 1 yilgacha mudatga. Depozit (jamg'arma sertifikatlari) – jismoniy shaxslar uchun 3 yilgacha muddatga.

Sertifikatning muomalada bo'lishi muddati u berilgan sanadan boshlab uning egasi omonatni talab qilib olish huquqini oladigan sanagacha hisoblanadi. Agar sertifikat bo'yicha depozit va omonatini olish muddati kechiktirilsa, u holda bunday sertifikat u bo'yicha talab qilib olinadigan xujjat hisoblanadi, ushbu sertifikat bo'yicha bank uning egasining birinchi talabiga ko'ra zudlik bilan unda ko'rsatilgan summani to'lash majburiyatini oladi.

Bank sertifikatni muddatidan oldin to'lovga taqdim etilishi ehtimolini nazarda tutishi mumkin. Bunday hollarda bank tomonidan oldindan, sertifikatni berish vaqtida belgilangan sertifikatning unda yozib qo'shilgan qiymati va pasaytirilgan stavka bo'yicha foizlar to'lanadi. Sertifikat egasiga sertifikatning muomalada bo'lish muddati tugashi bilan uning egasiga tegishli bo'lgan dastlab



chiqarish va muomalada bo'lish shartlarida belgillangan stavka bo'yicha foizlar emitent bank tomonidan, ushbu sertifikat xarid qilingan vaqtdan, qat'i-nazar to'lanishi lozim.

Sertifikatlar bir martalik qilib ham, seriyali, egasining nomi yozilgan va ko'rsatuvchi egalik qiladigan turlarda ham chiqarilishi mumkin.

Sertifikatni chiqaruvchi bank Markaziy bank bilan kelishgan holda unga boshqa qo'shimcha shartli va rekvezitlarni kiritishi mumkin. Sertifikat blankida chiqarish va muomalada bo'lishning barcha shartlari (sertifikat bo'yicha talab qilish huquqini boshqa shaxsga berish shartlari va tartibi) ko'rsatilishi zarur. Agarda sertifikat bilan uning blankida ko'rsatilgan shartlarda nazarda tutilmagan operatsiya amalga oshirilgan bo'lsa, unda bunday operatsiya haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Sertifikatlar blankalari faqat Markaziy bankdan qimmatli qog'ozlar blanklarini chiqarish uchun litsenziya olgan matbaa korxonalarini tomonidan tayyorlanadi.

Sertifikat egasi uni boshqa shaxsga o'tkazishi mumkin. Blankni egasining nomi yozilgan sertifikat bo'yicha talab qilish huquqining boshqa shaxsga o'tkazilishi (tseziya) uning orqa tomonida o'z huquqlaridan vos kechuvchi va mazkur huquqlarga ega bo'luvchi (tseziyonariy)ning ikki tomonlama kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi. Blankli ko'rsatuvchi egalik qiladigan sertifikat bo'yicha talab qilish huquqining boshqa shaxsga o'tkazilishi ushbu sertifikatni oddiy topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Banklar naqdsiz shakldagi sertifikatlarini ham chiqarishi mumkin («depo» hisobraqamlari bo'yicha). Bunday vaziyatda naqdsiz shakldagi sertifikatlar bo'yicha operatsiyalar hisobi banklar depozitariylarida yuritiladi. Depozit sertifikatlarining yuridik va jismoniy shaxslarga sotilishi ayrim tafovutlarga ega. Agar sertifikat yuridik shaxslarga sotilsa, emitent bank va omonatchi o'rtasida shartnoma tuziladi. Depozit sertifikatlari oldi-sotdisi va ular bo'yicha summalarni to'lashga doir pulli hisob-kitoblar faqat naqdsiz shaklda amalga oshiriladi. Depozit (jamg'arma) sertifikati jismoniy shaxslar nomiga ariza

asosida rasmiylashtiriladi, unda omonatchi sertifikatni to'ldirish uchun barcha zaruriy rekvezitlarni ko'rsatadi. Depozit (jamg'arma) sertifikati to'lovi chek yordamida yoki naqd pulda amalga oshiriladi. Bank tomonidan depozit (jamg'arma) sertifikati narxini qoplash naqd pulda yoki summani mijoz tomonidan ko'rsatilgan hisob-raqamga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ayrim qimmatli qog'ozlardan (masalan, veksellardan) farqli o'laroq, sertifikatlar sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan hizmatlar uchun hisob-kitob yoki to'lov vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi.

## **2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlarini soliqqa tortish tartibi**

Bizga ma'lumki, jismoniy shaxslar yuridik shaxslarga nisbatan son jihatdan ko'pchilikni tashkil etsada, ulardan undiriladigan soliqlar yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlardan bir necha barobar kam. Bu oradagi farqni kamaytirish, ya'ni jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni davlat byudjetidagi salmog'ini oshirish uchun aynan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni faolligini oshirish, soliq siyosatining tarkibiy qismi sifatida strategik va taktik yo'ldan adashmaslik hamda amaliyotda rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlash lozimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjetining muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga millionlab aholi turmush tarziga ta'sir ko'rsatishning muhim dastagi hisoblanadi.

Bugungi kunda bu boradagi xar bir o'zgarish nafaqat iqtisodchi, olim va amaliyotchilar balki keng xalq ommasi tomonidan muhokama qilib kelinmoqda.

Aksariyat hollarda asosiy e'tibor daromadning soliqqa tortiladigan miqdori, ya'ni, soliq yuki masalasiga borib taqalmoqda.

Chunki soliq yuki muayyan mamlakatda mavjud soliq tizimi hamda davlat soliq siyosati mazmunini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq yukiga baho berish ancha murakkab, chunki u yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan soliqlarni ham o'z ichiga olishi bilan ifodalanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq yukiga baho berar ekanmiz, bu o'rinda biz daromad solig'ini etakchi ahamiyat kasb etishini anglashimiz zarur.

Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik – huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi, mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxonalar, tashkilot, muassasa soliqlarni to'liq, to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida byudjetga o'tkazib berish javobgarligini o'z zimmlariga oladilar. Fuqarolarning olgan daromadlari to'g'risida soliq idoralariga, fuqaroga bildirish va ma'lumotnoma yozib berish vazifasi ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

2-jadval

**Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan  
soliq stavkalari<sup>11</sup>**

<b>Soliq solinadigan daromad</b>	<b>Soliq stavkasi</b>
Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	Daromad summasining 8 foizi
Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summadan 16 foiz
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	O'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 foiz

Bunda soliq solinadigan daromadlar guruhlarini bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga 2013 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (79590 so'm) miqdoridan kelib chiqib aniklanadi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qaroridan olingan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maksadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan (yil boshidan boshlab tegishli davrning xar bir oni uchun eng kam ish haqi summasi) hisobga olinadi.

- Belgilangan stavkatardan kelib chiqib hisoblangan va byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi, soliq solinadigan daromadlardan 1 foiz miqdorida hisoblab chiqarilib fukarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraklariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda deklaratsiyalash tizimining o'ziga xos jihatlari bo'lib, mamlakatimizda uning huquqiy asoslari to'liq ishlab chiqilgan.

Soliq to'lovchilar amaldagi kodeksning 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha, ya'ni:

- mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

- ikkita yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari yuzasidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan

daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs belgilangan tartibda daromadlar to'g'risidagi quyidagi deklaratsiyalarni taqdim etadi:

dastlabki deklaratsiyani – shunday daromadlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran bir oy o'tgach, besh kunlik muddatda, agar bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq solinmagan bo'lsa;

yakuniy deklaratsiyani – o'tgan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga  
belgilangan ijara to'lovi<sup>12</sup>**

To'lovchilar	Bir oylik ijara to'lovining eng kam miqdori, jami maydonning 1 kv.m uchun, so'mda		
	Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar	Boshqa aholi punktlarida
Mol-mulkni ijaraga bergan jismoniy shaxslar	3000	2000	1000

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs uchun agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etishadi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida o'rindoshlik asosida qo'shimcha korxonaga yoki tashkilotga ishga qabul qilinadigan vaqtda o'sha korxonaga ushbu jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq inspeksiyasidan ruyxatdan o'tganligi to'g'risidagi identifikatsion raqamini talab qilish majburiyati yuklatilgan. Chunki jismoniy shaxsning asosiy ish joyidan tashqari qo'shimcha daromadini ya'ni o'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan korxonasidan olgan daromadini ana shu korxonaga ushbu jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq inspeksiyasiga yuboradi. Bu esa asosiy ish joyidan tashqari qo'shimcha daromad olayotgan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish imkoniyatini oshirmoqda.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qaroridan olingan.

Demak yuqoridagi tartiblarda tegishli soliq inspeksiylarida jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlari aniqlanadi.

Acociy ish joyidan boshqa joyda daromad olgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan daromad colig'ining uzil-kecil miqdori olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlab qolingani coliq miqdorlari to'g'ricida taqdim etilgan deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha coliq xizmati organi tomonidan hicoblab chiqariladi.

Shu bilan birga acociy bo'lmagan ish joyidan olinadigan (qo'shimcha) daromadlar ham acociy ish joyidan olingan daromadlarni soliqqa tortish tartibida coliqqa tortishi belgilab qo'yilgan. Biroq qo'shimcha ish joyidan olingan (qo'shimcha) daromadlarni soliqqa tortishning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish lozim:

a) qo'shimcha ish joyida jismoniy shaxslarga to'lanadigan daromadlarga hech qanday imtiyoz qo'llanilmaydi;

b) qo'shimcha ish joyidan daromad oluvchi jismoniy shaxs yakuniy coliqni deklaratsiya topshirish orqali to'laydi;

v) qo'shimcha ish joyidan daromad oluvchi jismoniy shaxsning imtiyozga bo'lgan huquqi deklaratsiya topshirish paytida qo'llaniladi.

Jami yillik umumiy daromad deklaratsiyasi quyidagi bo'limlardan iborat:

-deklaratsiyaning I bo'limida fuqarolarning yil davomida olgan barcha daromadlari, bu daromadlarini olish bilan bog'liq xolda sarflangan xarajatlari shuningdek, daromadning yoki avanslarni to'lagan manbalarda bu daromadlardan ushlangan soliqlar xaqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Daromadlar olinganligi xaqidagi ma'lumotlar daromadlar olingan joyga, shuningdek, olingan daromadlar turiga qarab bo'limning tegishli jadvaliga kiritiladi;

-deklaratsiyaning II bo'limida daromadlar xaqida deklaratsiya beruvchi fuqaro chegirmalarga ega bo'lgan huquqi xaqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi;

-deklaratsiyaning III bo'limida hisobot yili uchun amalda soliqqa jalb etuvchi daromadlar yig'indisi ko'rsatiladi va soliq to'lovchining kelgusi yilda olish mo'jjallangan soliq to'lanuvchi daromadi ko'rsatiladi;

-deklaratsiyaning IV bo'limida jami yillik umumiy daromaddan olinadigan daromad solig'ining xisob-kitobi olib boriladi. Bu hisob-kitob o'zining yillik daromadi xaqidagi daromadni beruvchi fuqaroning o'zi va soliq organi tomonidan mustaqil amalga oshirilishi kerak.

Agar soliq to'lovchi tomonidan ko'rsatilgan deklaratsiyaning IV bo'limini to'ldirayotganda soliq hisob-kitobida xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, soliq organi bu bo'limdagi soliq to'lovchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarni e'tiborga olmaydi.

Agar oshirilgan xisob-kitob soliq to'lovchining shaxsiy xisobi ochilishi va to'lov xabarnomasi ko'chirmasi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovchi deklaratsiya blankasini olish haqida o'zi jon kuydirishi kerak. Buning uchun u deklaratsiya blankalari **bepul** berilishi kerak bo'lgan soliq organiga murojaat qilishi mumkun.

Soliq organlarida soliq to'lovchining hisobot yilida olingan eng kam ish xaqining 3 barobaridan ortiq miqdordagi daromadi xaqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, soliq organlari bu soliq to'lovchiga deklaratsiya taqdim etilishi zarurligi haqida eslatma yuborishlari shart.

Bugungi kunda asosiy ish joyidan tashqari qo'shimcha daromad topuvchi jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlarining faqatgina birgina ko'rinishi, ya'ni asosiy ish joyidan tashqari boshqa tashkilotda o'rindoshlik asosida ishlash orqali topgan daromadlarinigina aniqlash imkoniyati bo'lmoqda. Shuning uchun 2005 yil boshidan jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlarini tashkil qiluvchi mulkiy daromadlarining bir ko'rinishi bo'lgan o'z egaligi va tasarrufida bo'lgan transport vositalarini ijruga berish orqali daromad qiluvchi jismoniy shaxslarga ham ijaradan olgan daromadlariga qat'iy stavkada soliq to'lashlari belgilab qo'yildi.



Jami daromadlarni soliqqa tortishda jismoniy shaxslar tomonidan kalendar yili davomida olgan daromadlari to'g'risida to'ldirilgan deklaratsiyadan foydalaniladi. Biz jismoniy shaxslarning jami daromadlarini to'g'rirog'i asosiy ish joyidan tashqari manbalardan olingan daromadlari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarni hisobga olish va ularning daromadlariga soliq hisoblash hamda daromadlarini soliq to'lashdan yashirishga harakat qilgan va o'z vaqtida soliqlarni to'lamagan jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy hamda ma'muriy jarima choralarini qo'llashning amaldagi holatini Urgut tumani Davlat soliq inspeksiyasi misolida yoritib berishga va mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

4-jadval

**Urgut tumanida deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar bo'yicha  
korxonalar taqdim etadigan ma'lumotlar<sup>13</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2011 y</b>	<b>2012 y</b>	<b>2012 yilda 2011 yilga nisbatan o'sish yoki kamayish % da</b>
1	Hisobot yilida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	1200	1994	166
2	Belgilangan muddatda ma'lumot topshirgan korxonalar soni	569	653	115
3	Jamiga nisbatan % da	47,4	32,7	14,7

Urgut tumani bo'yicha jismoniy shaxslarning jami daromadlariga nisbatan soliq hisoblashning ikki yillik holatini tahlil qilish jarayonida ushbu ma'lumotlarga ega bo'ldik:

Urgut tumanida qo'shimcha daromadga ega bo'lgan va deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar to'g'risida tumandagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonlarning soliq idoralariga bergan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu tumanda 2011 yilga nisbatan 2012 yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni ko'payganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ya'ni, ularning soni 2011 yilda

<sup>13</sup> Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

1200 ta bo'lgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 774 taga ko'paygan holda 1994 tani tashkil qilgan. Ushbu korxonalarining 2011 yilda 569 tasi ya'ni, 1200 ta korxonadan 47,4 foizi belgilangan muddatlarda deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar to'g'risida ma'lumotlarni soliq inspeksiyasiga taqdim etgan bo'lsa, 2012 yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 653 tasi ya'ni 1994 ta korxonadan atigi 32,7 foizi belgilangan muddatlarda deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar to'g'risida ma'lumotlarni soliq inspeksiyalariga taqdim etganlar. Bu holatni 2011 yilga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, 2012 yilda korxonalar tomonidan belgilangan muddatlarda deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish holatlari 14,7 foizga kamayib ketgan. Bu albatta salbiy holat hisoblanadi. Chunki korxonalar tomonidan deklaratsiyaga jalb etiladigan fuqarolar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etmaslik oqibatida jismoniy shaxslarning jami daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'lmaydi va ularning qo'shimcha daromadlari soliqqa tortilmasdan qoladi.

5-jadval

**Urgut tumani bo'yicha deklaratsiya topshirgan fuqarolar bo'yicha ortiqcha to'langan va qo'shimcha soliq miqdori to'grisida ma'lumot<sup>14</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2011 y</b>	<b>2012 y</b>	<b>2012 yilda 2011 yilga nisbatan %da</b>	
1	Deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolar soni	878	1200	-22,6	
2	Belgilangan muddatda deklaratsiya taqdim etgan fuqarolar soni	184	312	100	
3	Qo'shimcha soliq hisoblangan fuqarolar	Soni	785	778	-0,9
		summasi	54282,9	78553,0	+44,7
4	Qo'shimcha hisoblangan soliqni to'lagan fuqarolar	Soni	759	731	-3,7
		summasi	54185,8	76568	+41,3
5	Deklaratsiyaga ko'ra ortiqcha soliq to'langan fuqarolar	Soni	667	202	-69,7
		summasi	6352,5	3101,4	-61,2
6	Shundan keyingi davr to'lovi uchun o'tkazilgan	Soni	547	134	-75,5
		summasi	377,8	1415,7	

<sup>14</sup> Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Endi esa Urgut tumani bo'yicha deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolarning salmog'i va ularni deklaratsiya topshirish holatining 2011-2012 yillardagi holatini solishtirish orqali quyidagilarni aniqlash mumkin bo'ladi. (5-jadval)

Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 2011 yilda Urgut tumani bo'yicha deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolar 878 tani tashkil qilgan bo'lsa, ushbu fuqarolarning 184 tasi ya'ni deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolarning 56,3 foizi belgilangan muddatda jami daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etganlar. 2012 yilda esa deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolar 1200 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu yil ham ushbu fuqarolarning 312 tasi jami daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etganlar. Bu esa 2012 yil mobaynida deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolarning 72,7 foizini tashkil qiladi. Agarda ushbu ko'rsatkichni 2011 yil holati bilan taqqoslaydigan bo'lsak, tuman bo'yicha deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolar 2012 yilga kelib 22,6 foizga kamaygan, shu bilan birgalikda deklaratsiya topshirgan fuqarolar salmog'i o'tgan yilga nisbatan o'zgarmagan. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki deklaratsiya topshirishi lozim bo'lgan fuqarolar haqida o'z vaqtida korxonalar tegishli ma'lumotlarni taqdim etmayapti. Natijada bir tomondan qo'shimcha daromadga ega bo'lgan fuqarolar salmog'i kamayib ketgan bo'lsa, ikkinchi tomondan deklaratsiya topshirayotgan fuqarolar salmog'ida o'sish holati kuzatilmayapti.

2011 yilda jami 184 ta deklaratsiya topshirgan fuqarolarning 35,9 foizi, ya'ni 785 tasiga nisbatan 54282,9 ming so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. 2012 yilda esa deklaratsiya topshirgan 312 fuqaroning 35,6 foiziga, ya'ni, 778 tasiga 78553,0 ming so'm qo'shimcha daromad solig'i hisoblangan. Agarda ushbu ikki yillik holatni taqqoslaydigan bo'lsak, 2011 yilga kelib qo'shimcha daromad solig'iga toriladigan fuqarolar soni 2012 yilga nisbatan 7 taga ya'ni, 0,9 foizga kamaygan. Natijada ularga nisbatan qo'shimcha 78553,0 ming so'm daromad solig'i hisoblangan.

Agarda 2011-2012 yillarda qo'shimcha hisoblangan soliqlarni byudjetga to'lanishi nuqtai nazaridan ham qo'shimcha soliq to'lagan fuqarolarni taqqoslaydigan bo'lsak, tuman bo'yicha 2011 yilda qo'shimcha soliq hisoblangan fuqarolarning qariyb 97 %i o'z vaqtida qo'shimcha hisoblangan 54185,8 ming so'm soliqni to'lagan. Bu holat bo'yicha 2012 yilgi ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'shimcha soliq hisoblangan fuqarolarning 778 tadan 731 tasi 94 %i 78553.0 ming so'm qo'shimcha hisoblangan soliqning 76568 ming so'mini o'z vaqtida to'lagan. Demak, ushbu holatdan ma'lum bo'ladiki, tumanda fuqarolar tomonidan qo'shimcha hisoblangan soliqlarni to'lanish holati ham yil sayin pasayib bormoqda.

6-jadval

**Urgut tumani soliq inspeksiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda deklaratsiya topshirmagan fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan choralar<sup>15</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2011 y</b>	<b>2012 y</b>	
1.	Ma'muriy jarimaga tortilgan fuqarolar	Soni	23	31
		summasi, ming so'm	116,1	202,4
2.	Undirilgan ma'muriy jarimalar	Soni	23	10
		summasi, ming so'm	116,1	65,3
3.	Moliyaviy jarimaga tortilgan fuqarolar	Soni	72	3
		summasi, ming so'm	50,7	3,4
4.	Undirilgan moliyaviy jarimalar	Soni	72	2
		summasi, ming so'm	50,7	3,2

2011 yil mobaynida 72 ta fuqaro fuqaro 50,7 ming so'm moliyaviy jarimaga tortilgan bo'lib, ularning barchasi undirib olingan. 2012 yilda esa atigi 3 ta fuqaro 3,4 ming so'm moliyaviy jarimaga tortilgan bo'lsa, shundan ham bor yo'g'i 2 ta fuqarodan 3,2 ming so'mi undirib olingan.

<sup>15</sup> Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Urgut tumani bo'yicha asosiy ish joyidan tashqarida daromad olgan fuqarolar buyicha qabul qilingan va jo'natilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2011 yilda o'rindoshlik asosida ishlovchilar haqida 8796 ta fuqaro bo'yicha ma'lumot olingan bo'lib, 3354 ta fuqaro bo'yicha ma'lumotlar tegishli soliq inspeksiylariga jo'natilgan. Ushbu holat bo'yicha 2012 yilda 7230 ta fuqaro bo'yicha ma'lumot olingan bo'lib, 2725 ta fuqaro bo'yicha ma'lumotlar tegishli soliq inspeksiylariga jo'natilgan. ( 7-jadval)

2011 yilda tijorat do'konlariga mol topshirgan fuqarolar bo'yicha olingan ma'lumotlar 2190 ta, jo'natilganlari 334 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda olingan ma'lumotlar 1254 tani, jo'natilganlari 188 tani tashkil qiladi.

7-jadval

**Urgut tumanida asosiy ish joyidan tashqari daromad olgan fuqarolar  
bo'yicha qabul qilingan va jo'natilgan ma'lumotlar<sup>16</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2011 y</b>	<b>2012 y</b>	
1.	O'rindoshlik asosida ishlovchilar	Olingan	8796	7230
		Jo'natilgan	3354	2725
2.	Tijorat do'koniga mol topshirganlar	Olingan	2190	1254
		Jo'natilgan	334	188
3.	Bir martalik deklaratsiya topshirganlar	Olingan	1446	275
		Jo'natilgan	38	7
4.	Bojxona orqali mol olib o'tganlar	Olingan	16	0
		Jo'natilgan	2	0
5.	<b>Mulkiy daromadlar bo'yicha</b>	Olingan	528	2114
		Jo'natilgan	74	951
6.	Boshqa daromadlar	Olingan	0	0
		Jo'natilgan	0	0
7.	Jami ma'lumotlar	Olingan	12976	10873
		Jo'natilgan	3812	3871

<sup>16</sup> Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Urgut tumani bo'yicha 2011 yilda bir martalik deklaratsiya topshirgan fuqarolar bo'yicha olingan ma'lumotlar 1446 ta, boshqa soliq inspeksiylariga jo'natilganlari 38 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda bir martalik deklaratsiya topshirganlar fuqarolar buyicha olinganlari 275 tani, jo'natilganlari atigi 7 tani tashkil qiladi. 2011 yilda bojxona orqali mol olib o'tgan jismoniy shaxslar to'g'risida soliq inspeksiylasiga olingan ma'lumotlar 16 ta, jo'natilganlari 2 tani tashkil qiladi. 2012 yilda ushbu holat bo'yicha soliq inspeksiylasiga ma'lumotkelib tushmagan.

Urgut tumani soliq inspeksiylasiga mulkiy daromadlar bo'yicha daromad olgan fuqarolar buyicha olingan ma'lumotlar 2011 yilda 528 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 2114 tani tashkil qilgan. Ya'ni, mulkiy daromad olgan fuqarolar 2012 yilda 2011 yilga qaraganda 4 barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda soliq inspeksiylasidan boshqa soliq inspeksiylariga mulkiy daromad olgan fuqarolar haqida jo'natilgan ma'lumotlar 2011 yilda 74 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 951 tani tashkil qilgan.

Umumiy tarzda olganda Urgut tumani soliq inspeksiylasiga qo'shimcha daromad qiluvchi jismoniy shaxslar to'g'risida 2011 yil davomida jami tomonidan 12976 ta ma'lumot olingan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 10873 tani tashkil qilgan. Shundan soliq inspeksiylariga jo'natilgan ma'lumotlar 2011 yilda 3812 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 3871 tani tashkil qilgan.

### **III BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MULKIY DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Jismoniy shaxslardan soliq undirishning xorij tajribasi va undan foydalanish masalalari**

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar byudjet tizimining tuzilishi va byudjetlararo munosabatlar, yani mamuriy va byudjet tizimining darajalari, moliyaviy resurslarning byudjelararo qayta taqsimlash mexanizmlari va byudjet tizimini turli pog'onalarida zayom mablag'larining jalb qilinishi o'tish davri xususan O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorij mamlakatlarida byudjetga tushadigan soliq tushumlari umumiy miqdoridagi fuqarolar daromad solig'ining ulushi quyidagicha: AQShda – 39%, Buyuk Britaniyada – 24,8%, Shveysariya va Shvetsiyada – 35%, Frantsiyada – 14% (Frantsiyada byudjet daromad manbai bo'lib asosan daromaddan olinadigan soliq emas, balki iste'molga solinadigan hisoblanadi). Iqtisodiy va rivojlanish bo'yicha hamkorlik tashkiloti qatnashchisi bo'lgan mamlakatlarda aholidan olinadigan daromad solig'i umumiy soliqlar tushumida o'rtacha 30%ni tashkil etadi. Daromad solig'i etakchi o'rindaligi qator omillarga bog'liq:

Birinchi, bu – shaxsiy soliq, ya'ni to'lovchi haqiqatda olgan daromad ob'ekti bo'lgan soliqdir, bu taxmin etilayotgan, muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo'lgan o'rtachaga keltirilgan soliq emas. (o'rtachaga keltirilgan daromad asosida aniq - erga, mulkka va h.k.ga solinadigan soliq belgilanadi).

Ikkinchi, daromad solig'i soliqqa tortilish asosiy tamoyillarini yalpi umumiylik va teng miqdordalikni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beradi. Daromad solig'i olishda asosiy kamchilik uni to'lashdan bosh tortish uchun keng imkoniyatning mavjudligidir. Frantsiyada, masalan, soliq to'lashdan daromadning uchdan bir qismigachasi yashiriladi, Shvetsiyada esa 25% gacha daromad uchun deklaratsiya to'ldirilmaydi.

Shuning uchun, asosiy bo'lgani holda daromad solig'i rivojlangan mamlakatlarda aholidan olinadigan yagona soliq emas. U aniq soliqlar – er, uy, ovchilik, pul sarmoya va h.k.lar bilan qo'shilgan. Bu qaysidir darajada daromadning yashirilishi tufayli byudjet yo'qotishlarini bartaraf etish va mulkdan samarasiz foydalanishning oldini olish imkonini beradi.

Meros va sovg'a tarzida o'tadigan mulk solig'i shaxs haqiqiy daromadini hisobga olish vositasi sifatida ohirgi o'rinda turadigan soliqdir.

Har bir jismoniy shaxsdan undiriladigan daromad solig'i bazasini hisob-kitob qilishda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor tushunchasiga duch kelinadi.

Soliq solinmaydigan eng kam miqdor kategoriyasiga o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra standart chegirma deb ataluvchi chegirma–AQSh qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyoz yaqindir. Standart chegirma soliq solinmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanib kelinadi. U soliq solinmaydigan eng kam miqdor singari qat'iy qayd etilgan summada, masalan, 3 ming dollar bilan (yolgiz soliq to'lovchilar uchun), 5 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart chegirmaga ega. AQShdagi imtiyozning muhim farqi shundan iboratki, soliq to'lovchi standart chegirma o'rniga o'z chiqimlarini moddalar bo'yicha hisoblash usulini qo'llash mumkin. Bu harajatlarni yalpi daromaddan chiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish harajatlari; tish doktori xizmatlariga xaq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

Bizda bu hildagi harajatlar soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanmagan. Chunki hozircha, bizning nazarimizda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bunday imtiyozli harajatlarga tayyor emas. Bu aholining daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yo'lida yangi bosqich bo'lishi mumkin edi.

O'zbekistonda esa daromad solig'ining stavkasi oshishi bilan, o'rtacha stavkasi ham oshib ketmoqda.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQShda aholidan olinadigan daromad solig'ining asosiy farqi kamayuvchan (regressiv) usulda soliqqa tortiladi. Bizda esa daromadning oshishi bilan soliq stavkasi ko'payib boruvchi, ya'ni progressiv usulda. O'rganilayotgan mamlakatlar ichida Amerikada jismoniy shaxslar daromad solig'i byudjet daromadlari tarkibida anchagina katta salmoqqa egadir.

Daromad solig'i bo'yicha asosiy qonuniy hujjat bo'lib 1970 yildagi qonun hisoblanadi. Bunda har yili yangi byudjetlarga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Har bir davlatda soliq tizimining o'ziga xosligi jismoniy shaxslardan ham daromad soligini undirish mexanizmining o'ziga xosligini belgilaydi.

Amerika federal hukumatida moliya yili 30 sentyabrda tugaydi.

Soliqqa tortiladigan daromad deganda odatda ish xaqi, asosiy ish xaqidan tashqari barcha daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar, pensiyalar, dividendlar, foizlar, royaltlar va daromadlarning boshqa turlari kiradi. Biroq soliq to'lovining aniq miqdorini aniqlashda barcha daromadlardan barcha harajatlarni tegishli tartibda chegirib tashlashdan qolgan daromad qabul qilinadi. Ulardan eng muhimi soliqqa tortilmaydan minimumdir.

Undan yakka tartibdagi pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan bir oila uchun 50 ming dollardan oshmaydigan summalar, 10 ming dollar miqdorida yakka tartibda deklaratsiya to'ldiriladigan er-xotinlar uchun va 35 ming dollar miqdorda alohida soliq to'lovchilar uchun chegirib tashlanadi. Agar jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa, unda sog'lig'ini sug'urta qilishga ketgan mablag'ning 25 foizi miqdoridagi summa chegiriladi. Har bir soliq to'lovchining daromadi 2050 dollar miqdoridagi soliq solinmaydigan minimumga kamaytiriladi. qaramoqda bo'lgan har bir boqimanda uchun ham shu summa soliqqa tortilmaydi.

Daromad solig'ining hisob-kitobi soliqqa tortilmaydigan minimumni chegirib tashlashdan boshlanadi. Tibbiy xizmatga alokador transport harajatlari ham hisobga olinadi. Bu harajatlar hisob-kitobi haqiqiy miqdorlaridan kelib chiqib yoki har bir mil uchun 6 tsentlik limitdan kelib chiqadi. Tibbiy xizmatdan

foydalanish tufayli uydan tashqarida bo'lgan har bir kecha uchun 50 dollar miqdorida chegirma beriladi.

Soliqqa tortiladigan daromaddan to'langan shtatlar va mahalliy soliqlar summalari, ko'chmas mulk soliqlari chegirib tashlanadi. Agar uy sotib olganda kreditdan foydalanish foizlari 1 mln. dollardan (alohida deklaratsiya to'ldiriladigan er-xotinlar uchun—500 ming dollar) oshmagan hollarda bu harajatlarga ham soliq bazasi kamaytiriladi. Investitsion kreditlaridan foydalanganlik uchun foizlarning 1 ming dollar miqdori (alohida deklaratsiya to'ldirilganda esa —500 dollar) chegiriladi. Shaxsiy ahamiyatdagi kreditlar foizlarning esa 10 % miqdori chegiriladi. Xayriya fondlariga ajratma qilinganda korrektyrovka qilingan daromadning 50% miqdori soliqqa tortilmaydi. Tabiiy ofat va o'g'irlik tufayli zararlar ham soliqqa tortilmaydi.

Kasbiy faoliyat, malaka oshirish bilan bog'liq transport va yo'l harajatlari ham soliqqa tortilmaydi.

Yaponiyada esa o'rta daromadli soliq to'lovchining 30% gacha miqdordagi daromadi soliqdan ozod etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, soliq stavkalarining miqdori daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'iga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas. Ya'ni soliq stavkasi qancha katta bo'lsa, soliq tushumlar ham shuncha katta bo'ladi, degan xulosa chiqmaydi. Buni biz ushbu jadvaldagi Shveytsariya davlati misolida ko'rishimiz mumkin. Va aksincha, Rossiya misolida teskari holatni kuzatish mumkin. Bu degani har bir davlat jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda o'z ustivor yo'nalishi va byudjet manfaatlaridan kelib chiqadi. Lekin har ikki holatda ham bir narsa shartli ravishda mavjud bo'lishi kerak, ya'ni soliq stavkalari progressiv bo'lish kerak.

Buyuk Britaniya soliq tizimi asosan o'tgan yuz yillikda shakllangan bo'lib, o'sha davrdagi soliq tizimining o'ziga xos hususiyatlari hozir ham saqlanib qolgan. Buyuk Britaniyada 1993 yilda o'tkazilgan soliq islohoti jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimiga anchagina o'zgartirish kiritadi va uni umumiy bozorga a'zo davlatlar soliq tizimlariga bir muncha yakinlashtiradi.

Hozirgi vaqtda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimiga barcha rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan muammolar tufayli yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bundan tashqari Buyuk Britaniya soliq tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar asosan, Leyboristlar hukumati olib borayotgan siyosatga mos kelmoqda. Oxirgi o'n yillikda anchagina soliq tadbirlari o'tkazildi, jumladan aholi daromad solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich 33%dan 22%ga tushirildi, aholining turli qatlamlariga soliq imtiyozlari berish tamoyillari o'zgardi, ba'zi soliq turlari bekor qilindi, bir qator soliqlar joriy etildi. Umuman olganda esa soliq qonunchiligining isloh qilinishi daromad solig'ining murakkab tarkibiga oid muammoni echishga, uning tamoyillarini takomillashtirishga, aholini to'g'ri soliqlar bilan soliqqa tortishdagi soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan edi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliqqa tortilmaydi: natural ko'rinishda beriladigan nafaqalar, agar ular faqat shu nafaqani oluvchilar tomonidan ishlatilsa va ularni pul ko'rinishiga aylantirish mumkin bo'lmasa, milliy jamgarma sertifikatlari bo'yicha foizlar, nogironlar nafaqalari, studentlarga beriladigan stipendiyalar, ishsizlik, kasallik va onalik nafaqalari.

Britaniya soliq tizimi esa ikkita xususiyatga egadir. Birinchidan, soliq tizimi qanday ishlayotgannini kamdan-kam odam tushunadi. Ikkinchidan, uning o'ziga ketadigan xizmatlar juda qimmatdir. Amerikaliklar qoidasiga ko'ra soliq idorasi bilan yilida bir marta uchrashadilar. Angliyalik soliq to'lovchi esa to'rt marta uchrashadi. Bu Angliya soliq tizimining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Inglizlar soliq deklaratsiyalarni topshiradilar va ularga soliq idorasi soliq to'langanligi to'g'risidagi cheklarni yuboradi.

Fuqarolardan undiriladigan mol-mulk solig'i Germaniyada mol-mulkdan olinadi va butunlay erlar byudjetlariga tushadigan soliqdir.

Soliq mulkiy soliq to'g'risidagi qonun asosida, baholash to'g'risidagi qonunda mol-mulkni hisobga olish va baholashning asosiy qoidalari, Federal Konstitutsiyaviy sudning 1995 yildagi qaroriga muvofiq undiriladi. Ushbu soliqqa doir amaldagi qonunchilik har doim ham Konstitutsiyaga to'g'ri

kelavermaydi. Shuning uchun bu soliqni undirish bo'yicha albatta bir qator o'zgartirishlar joriy etiladi.

Yangi o'lkalarda yashash joyiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek ularda joylashgan korporatsiyalar, shirkatlar uchun alohida qaror qabul qilingan. Ular 1991 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrda mulkiy soliqni to'lashdan ozod qilingan.

Mulkiy soliq bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdorlar va ko'psonli imtiyozlar mavjud .

Mol-mulkning boshqa turlarini belgilashda bir qator imtiyozlar mavjud. Masalan: umumiy summasi 110000 evrodan kam bo'lgan foizli va foizsiz kapital qarzlari, jamg'arma omonatlari, bank aktivlari, mamlakatdagi va xorijiy to'lov vositalari, aktsiyalar va ulushlar hisob-kitob uchun qabul qilinmaydi .

Shuningdek, sug'urta qilingan shaxslarning bevalari va etimlariga to'langan summalar, pensiyalar va boshqa renta e'tirozlari, ijtimoiy sug'urta hisobidan to'lovlar, aholining bandligi jamg'armasidan nafaqalar va shu kabilar hisobga olinmaydi.

Shaxsiy soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorlar:

Mulkiy soliqning alohida hisoblanmasligiga ega har bir shaxs yoki umumiy hisoblanmasada qatnashuvchilar ( er, xotin va bolalar ) 120000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorga ega bo'ladi.

Agar soliq to'lovchi 60 yoshga to'lgan bo'lsa yoki u taxminan 3 yilga nogironlar to'g'risidagi qonunga binoan 100 % lik nogironlik olgan bo'lsa, unga 50000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan qo'shimcha eng kam miqdor taqdim etiladi.

Agar soliq umumiy tarzda hisoblanadigan er – xotinlardan birining sharoiti yosh yoki nogironlikga tegishli shartlarga muvofiq kelsa, unda ularga 50000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor taqdim etiladi.

Mabodo er-xotinning har ikkalasining sharoiti ham ana shunday shartlarga muvofiq kelsa, unda ularga to'g'ri keladigan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor summasi 10000 evrogacha ko'paytiriladi .

Mol-mulk solig'i yuridik, jismoniy shaxslarning netto mol-mulkiga (qarzar chegirib tashlanib ) soliq hisoblanadi.

Soliq stavkalari proportsional va odatda yuqori emas. Masalan, GFRda jismoniy shaxslar uchun stavkalar 0,5 % qilib belgilangan .

Hozirgi mulkiy soliq shaxsiy soliq hisoblanadi va real soliqlardan farqli ravishda unga soliqqa tortishda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor va soliq bo'yicha imtiyozlar hisobga olinadi. Mol-mulkning baholanishi soliq deklaratsiyasiga binoan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxs mol-mulki qiymatining baholash mulki soliqqa tortishning muhim elementi hisoblanadi. Qonunlarga binoan «mol-mulkning birlik qiymati» soliqqa tortiladi.

Soliq to'lovchilar uchun –70 ming evro miqdoridagi mol-mulkga ega er-xotinlar uchun –140 ming evro miqdoridagi mol-mulkga soliq solinmaydigan eng kam miqdor belgilangan. Shuningdek har bir bola uchun 70 ming evro miqdorida chegirmalar nazarda tutilgan.

Germaniyada soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish e'tiborga loyiqdir. Chunki soliq to'lovchilarni soliq inspektorlari emas, fuqaro istiqomat qiladigan obshina hisobga oladi. Fuqarolarning mulklari va erlari to'g'risidagi ma'lumotlar obshina tomonidan soliq idorasiga har bir to'lovchi bo'yicha beriladi va soliq idorasi ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchining nazorat kartochkasiga asosan shaxsiy kartochka sifatida ochilgan hisob raqamiga tegishli yozuvlarni kiritadi.

Soliq idorasi soliq hisobini tuzib, soliq to'lovchining shaxsiy hisob varaqasiga hisoblangan soliq to'g'risidagi yozuvni kiritadi.

### **3.2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishni mukammallashtirish**

2008 yil yakunida mamlakatlar iqtisodiyotida jiddiy ta'sir ko'rsata boshlagan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bizning ham mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz I.Karimovning "...Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida gapirib o'tirishning hech qanday zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman"<sup>17</sup>. Darhaqiqat shu tariqa mamlakatimizda iqtisodiyotning globallasuvi, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilish va davlat soliq siyosati samaradorligini oshirishning hozirgi kundagi amaliyoti nazariyotchilar oldiga uning qator yangi muammolariga echim topishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Ma'lumki, aholi pul daromadlarini mustahkamlash respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyatimizning poydevori sifatida ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan eng muhim bo'lgan sohaga aylanib bormoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov to'xtalib, - "...Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman, pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda. Birgina 2010 yilda byudjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi. Aholining daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad ulushi tobora salmoqli o'rin

---

<sup>17</sup> Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari va yo'llari", T.: O'zbekiston, 2009.-56b

egallamoqda va barcha daromadlarning 47 foizdan ortig'i ushbu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda."<sup>18</sup> deb ta'kidlab o'tdilar.

Mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga daxldor qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar islohotlar jarayonining tarkibiy qismi, ichki xarakatlantiruvchi omiliga aylandi. Shundan kelib chiqib, soliq tizimi o'ziga xos vazifani to'la darajada bajarishi islohotlar muvafaqqiyatini belgilaydi.

Respublikamizda hozirgi vaqtda amal qilayotgan soliq kodeksiga ko'ra yil davomida ikki va undan ko'p daromad manbaiga ega bo'lgan barcha toifadagi fuqarolar uchun majburiy ravishda deklaratsiya taqdim etish tartibi belgilangan.

Deklaratsiya taqdim etishning bunday mexanizmi yillik umumiy daromadlarni progressiv (o'sib boruvchi) shkala bo'yicha soliqqa tortilishi joriy etilishi bilan bog'liqdir. Bunda fuqarolar tomonidan bir nechta manbalardan yil davomida olinadigan umumiy daromadlarini deklaratsiyalash, jismoniy shaxslar daromadlarini hisobini to'liqroq olishga va uni olingan daromadlarning umumiy summasidan kelib chiqib soliqqa tortishga imkon beradi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

1. Daromad solig'ini daromadni to'lash manbasidan ushlab qolish tizimini takomillashgan shaklini saqlab qolish lozim, bunda daromadlarni umumdeklaratsiyalashning texnik imkoniyatlaridan foydalanish zarur bo'ladi.

2. Umumiy yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani hamma fuqarolar ham taqdim etmaydilar, ya'ni daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni taqdim etuvchi jismoniy shaxslar toifalari kriteriyalari (mezonlari) aniqlanadi.

3. Mulknii deklaratsiyalash orqali sanoqdan o'tkazish.

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi – Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar – 2 b.

4. Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va soliqlarni undirish jarayoni mumkin qadar avtomatlashuvi lozim, bunda sub'ektlar tomonidan qaror qabul qilish amaliyotini bartaraf etadigan usullarni ishlab chiqish kerak.

5. Daromadlarni umumdeklaratsiyalash tizimi to'g'risidagi qonunni ishlab chiqish vaqtida qo'yidagi belgilar saqlanib qoladi:

- jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda rezidentlik hamda xududiy tamoyillariga qarab soliqqa tortish qo'llaniladi;

- bir sub'ektning daromadi bir marta soliqqa tortilishi kerak va xususiy hudud egasining daromadlarini soliqqa tortish masalalariga aniqlik kiritish kerak;

- soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ustuvor ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash zarur.

Deklaratsiyalar asosida soliq to'lash deklaratsiyalarda ko'rsatilgan daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini, soliq imtiyozlaridan asosli foydalanilishi nazorat qilinishini nazarda tutadi. Nazorat turli tashkilotlardan kelgan ma'lumotlarni solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Shu o'rinda yana bir dolzarb muammolardan birini aytib o'tmoqchimiz. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni daromadini soliqqa tortishda qat'iy stavka qo'llanmasdan haqiqiy olgan sof daromaddan soliqqa tortilishi, ya'ni adolatlilik printsipiga tayanish lozim. Bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlar soliq qonunchiligida daromad solig'ini hisoblash uchun progressiv soliq stavkalarini belgilaydi. Ular soliq solinadigan ob'ektga nisbatan foizlarda ifodalangan soliq ulushidan iborat bo'lib, bu ulush soliq to'lovchining daromadi hajmining ko'rinishiga qarab ko'payadi. Bu stavkalar soliq huquqining eng muhim qoidalaridan biri adolatli soliq solish printsipini eng to'liq holda ifodalaydi.

Umuman, jismoniy shaxslar jami daromadlarini umumdeklaratsiyalash yuzasidan davlat tadbirlarining samaradorligini oshirishda milliy mentalitetning hisobga olinishi soliq bazasida quyidagi qat'iy choralar belgilanishini nazarda



tutadi:

1. Fuqarolarimizda ota-bobosidan qolgan boylik, mablag', meros va mol-mulkni ishlatishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslar jami daromadlarini umumdeklaratsiyalash vaqtida butunlay, ma'lum muddatga soliq bazasidan chiqarilishi (soliqdan to'liq ozod qilinishi) yoki turli chegirmalar berilishi (soliqdan qisman ozod qilinishi) lozim. Mazkur tadbir orqali aholi daromadlarini legallashtirish, ularning yuksak ishonch bilan tashabbuskorona faolligini oshirishga erishiladi.

2. Jahon amaliyotida, masalan Rossiya Federatsiyasida "ilg'or" tadbirkorlar uchun keng qo'llanilib kelayotgan jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan topilayotgan daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimi orqali soliqqa tortishda davlat tomonidan "o'zgartirilgan", "qayta hisoblangan" daromad bazasi asosidagi "maksimal daromadni legallashtirish"dan qo'rqmaslik hissini shakllantirish zarur.

3. Davlat uchun ahamiyatli bo'lgan sohalarda, milliy qadriyatlar va boyliklarimiz na'munalarining butligini saqlash, ularning kelajak avlod uchun saqlanishini rag'batlantirish maqsadida ayrim sohalarda faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar daromadidan soliqlarni hisoblashda engilliklar berish lozim.

Aholining ijtimoiy tabaqalanishini e'tiborga olgan holda soliq stavkasi miqdorini tabaqalashtirilganligi soliqqa tortish tamoyillariga mos keladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, aholi daromadini soliqqa tortishda "o'zbekona ko'pbolalik" xususiyatlari ham, albatta, e'tiborga olinishi lozim. Masalan, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, asosan, Evropa mamlakatlariga solishtiriladi. Jumladan, aholi daromadiga solinadigan soliq ham. Ma'lumki, aksariyat Evropa mamlakatlarida har bir oilada nari borsa 1 ta yoki 2 ta farzand tarbiyalanadi. Bizda esa, har bir oilaga to'g'ri keladigan a'zolar kamida 5 kishiga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda, har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan oila byudjeti salmog'ini solishtirib ko'rish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, aksariyat o'zbek oilalarida onalar faqat uy bekasi ekanligini hisobga olish zarur.

## XULOSA

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq yukini engillashtirish bo'yicha anchagina tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yildan-yilga soliq yuki kamaytirilib, daromadga 2013 yilning yanvaridan 8;16;22 foizli progressiv soliq stavkasi belgilangan. Ushbu ko'rsatkich avvalgi yillardagi soliq yukidan ancha pastdir. Hozirda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni davlat byudjetidagi va mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'ini oshirish soliq organida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar bo'yicha belgilangan imtiyozlar darajasiga ham bog'liq.

Shuning uchun jismoniy shaxslar mulkiy daromadlari mexanizmini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

To'g'ri hamma soliq to'lovchi ham imtiyozga ega bo'lishni, shu orqali soliq yukini engil bo'lishini istaydi. Hattoki, soliqdan to'liq ozod bo'lishni xoxlovchilar ham oz emas. Soliq amaliyotida coliq to'lovchilar majburiyatlarini tushuntirishdan ularga belgilangan imtiyozlarni etkazish osonroq.

Jismoniy shaxslarni soliqlarga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini quyidagilarda ko'rish mumkin.

Birinchi, jismoniy shaxslar imtiyozlari asosan aholini va fuqarolarni ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan. Jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatlarini oladigan bo'lsak, ularga berilgan imtiyozlar hozirgi amaldagi qonunchilik bo'yicha bekor qilingan. Bizga ma'lumki yuridik shaxslarni faoliyatini rag'batlantiruvchi bir qator imtiyozlar mavjud bo'lib, bular o'z navbatida ularning ushbu faoliyatlarini rivojlantirishga, ishlab-chiqarish va moddiy texnika bazasini kengaytirishiga xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning qat'iy stavkadagi daromad solig'i joriy etilgunga qadar bir qator chegirmalar berilar edi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, bunda tadbirkorlar safining tobora kengayib borishi, ular daromadlarining oshib borishi va shu bilan birgalikda ular daromadlarini soliqqa tortish takomillashib borishi,

ushbu soliq turini kelajakda byudjet daromadlarining asosiy manbalaridan biriga aylanishi muqarrar va ravshandir.

Bugungi kunda mamlakatni qayta isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslarni daromad solig'ining takomillashtirish mexanizmini kuchaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

– tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish va o'ni rivojlangan davlatlar tizimlariga yaqinlashtirish maqsadida, amaldagi tizimni qayta ko'rib chiqish;

– soliq idoralari soliq agentlari bilan ishlashni pasaytirmagan holda, soliq idoralari o'rtasidagi elektron ma'lumot almashuv darajasini ko'tarish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarimiz asosida quyidagi takliflarni keltirishni o'rinli deb topdik:

**1-taklif.** Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning ayrim toifalari daromadlariga imtiyozli soliq stavkalari joriy qilingan bo'lib, ular dastlab soliq stavkalari yuqori bo'lgan davrlarda o'zining samarasini bergan edi. Endilikda soliq stavkalarining pasayganligini inobatga olib mazkur imtiyozli soliq stavkalaridan voz kechish lozim. Chunki bu imtiyozli soliqqa tortish stavkalarining qo'llanilishi soliqni hisoblash uslubiyatini qiyinlashtirmoqda.

**2-taklif.** Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromatlardan turli toifa aholi uchun imtiyozli chegirmalar ishlab chiqish kerak. Bu jarayon aholini ijtimoiy nuqtai-nazardan to'liq himoyalaydi hamda taklif etilyotgan chegirmalar rivojlangan mamlakatlar soliq tizimida samarali qo'llab kelinmoqda.

**3-taklif.** Jismoniy shaxslar mulkiy daromadlarini soliqqa tortish uslubiyatini soddalashtirish maqsadida hamda soliq yukini kamaytirish uchun mazkur daromadlarga progressiv soliq stavkasi o'rniga yagona soliq stavkasini joriy etish taklif etiladi.

**4-taklif.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning samarasini yanada oshirish maqsadida mulkiy daromadlarga soliq hisoblashda soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etish taklif etiladi.

**5-taklif.** Mol-mulklarini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxslarning faoliyatlarini kengaytirishiga, ishlab-chiqarish va moddiy texnika bazasini kengaytirishiga xizmat qiladigan imtiyozlarni joriy etish;

**6-taklif.** Mulkiy daromad manbasiga ega bo'lgan nogironlar va ularga tenglashtirilgan fuqorolarga nisbatan belgilangan ijara to'lovlari miqdorlari bo'yicha imtiyozlar berishni joriy qilish.

**7-taklif.** Jismoniy shaxslar tomonidan olinadigan dividend va foizli daromadlarni soliqqa tortishda amaldagi soliq qonunchiligida imtiyozlar ko'zda tutilmagan. Jismoniy shaxslarning mazkur daromad manbalariga nisbatan imtiyozlar joriy etish lozim, ushbu holat bevosita qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga turtki beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.**

#### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel.

1.6. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.

1.7. "Oilaviy korxonalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2012 yil 12 aprel.

1.8. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini

takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF 3305-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes rivojlanishini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 19 iyundagi "Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1134-sonli Qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» gi Qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 avgustdagi "Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 280-sonli qarori.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 75-sonli Qarori.

## **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari**

1.18. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1995 y. -B. 269.

1.19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1997 y.-B. 326.

1.20. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1998. -B. 686.

1.21. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1999 y. — B. 412.

1.22. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.

1.23. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -B. 176.

1.24. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

### **II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.**

#### **Darslik va o'quv adabiyotlari:**

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T.: Sharq, 2009. -526 b.

2.2. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo'llari. / Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004 y.

2.3. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.

- 2.4. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- 2.5. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
- 2.6. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 8-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2010. -576 с.
- 2.7. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.
- 2.8. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiy etilgan/ A. Yuldashev. - T.: " Fan texnologiya", 2007. - 128 s
- 2.9. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
- 2.10. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvshi” nashriyoti, 2007. –232 b.
- 2.11. Беляев Ю.А. Бюджетный федерализм: зарубежный опыт. –М.: Финансы, 2007
- 2.12. Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юнити-Дана”, 2010
- 2.13. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010
- 2.14. Худолеев В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Форум”. 2009
- 2.15. Тарасова В., Владика М. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: “Кнорус”. 2009
- 2.16. Пансков В.Г., Князев В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. –М.: “МЦФЭР”, 2009
- 2.17. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.
- 2.18. Соколов А. Теория налогов. –М.: ООО “ЮрИнфоР-Пресс”, 2004.



–С. 25.

2.19. Макконел К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд., Т.1. – М.: Республика, 2002. – с.120.

2.20. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -Т.: «Moliya», 2003. -В. 148.

2.21. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -Т.: “Akademiya”, 2005. - В. 130

2.22. Temur tuzuklari. / Forschadan A.Sog'unuy va H. Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahr. ostida. –Т.: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. 1996. 125-bet.

2.23. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - Т.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -В. 202.

2.24. Almardonov M.I., Qo'zieva N.R. Soliqlar va soliqqa tortish. - Т.: «Iqtisod-moliya», 2007. -В. 245.

### **Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:**

2.25. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8

2.26. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - В. 27.

2.27. Malikov T.S. Mustaqillik yillarida soliq siyosati. //Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2001. №2, - В. 26.

2.28. Musagaliev A. Soliqlar vositasida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №8. - В. 41-42.

2.29. Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - В. 51-53.

2.30. Olimjonov O. Adolatli soliq — mamlakat tayanchi. //Soliq to'lovchining jurnali. - Toshkent, 2006. - №6. - В. 38-40.

2.31. Usmanova M.S. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ayrim masalalari// Birja Ekspert.-Toshkent , 2009.-№12(24)-B.15.

2.32. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.

### **III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.**

3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.

3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.

3.3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.

3.4. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.

3.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.

3.6. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

### **IV. Internet saytlari.**

4.1. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

4.2. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

4.3. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

4.4. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti

4.5. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

4.6. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.